


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



AZIZIDDIN NASAFIYNING "TANZIL" ASARI - TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA

«ТАНЗИЛ» АЗИЗИДДИНА НАСАФИ – ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ПО СУФИЙСКОЙ ФИЛОСОФИИ

AZIZIDDIN NASAFI'S "TANZIL" - AN IMPORTANT SOURCE ON SUFI PHILOSOPHY

Narziyev Zubaydillo Ibodilloyevich 

Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutasavvif vatandoshimiz Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari, uning tuzilishi, unda o'rinn olgan muhim tasavvufi, falsafiy, axloqiy, ma'nnaviy, ma'rifiy masalalarga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, Nasafiy asarlarining mazmun va mohiyati, ularning yozilish uslubi hamda ularda aks ettirilgan mavzularga oid qarashlar qisqacha sharhlangan.

Аннотация

В данной статье анализируется произведение «Танзиль» нашего великого соотечественника-мистика Азизиддина Насафи, его структура, важные мистические, философские, этические, духовные и образовательные вопросы, содержащиеся в нем. Также кратко комментируются содержание и суть произведений Насафи, стиль их написания, взгляды на отраженные в них темы.

Abstract

This article analyzes the work "Tanzil" of our great mystic compatriot Aziziddin Nasafi, its structure, the important mystical, philosophical, ethical, spiritual and educational issues contained in it. Also, the content and essence of Nasafi's works, their style of writing, and the views on the topics reflected in them are briefly commented

Kalit so'zlar: Aziziddin Nasafiy, Sa'diddin Hamaviy, Abu Homid G'azzoliy, Umar Xayyom, "Tanzil", komil inson, wahdat ul - wujud, jabarut, malakut, mulk olamlari.

Ключевые слова: Азизуддин Насафи, Саадиддин Хамаеви, Абу Хамид Газали, Омар Хайям, «Танзил», совершенный человек, вахдатуль-вуджуд, джабарут, малакут, миры собственности

Key words: Azizuddin Nasafi, Sa'diddin Hamavi, Abu Hamid Ghazali, Omar Khayyam, "Tanzil", perfect human being, wahdat ul - wujud, jabarut, malakut, worlds of property

KIRISH

Tasavvuf va ifronning etuk nazariyotchisi, vatandoshimiz Aziziddin ibn Muhammad Nasafiy milodiy XIII asrning boshida Nasaf shahrida tug'ilgan. Bu davrda Nasaf ifron va tasavvufning yirik markazlaridan hisoblanib, fiqh, tafsir, hadis va kalom ilmi bo'yicha ham yirik olimlar ushbu diyordan etishib chiqqan. Boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahrida olgan Aziziddin tahsilning keyingi bosqichini Buxoroi Sharifda davom ettirgan. Bu erda u tasavvuf, falsafa, kalom va tib ilmlarini chuqur o'zlashtirgan. Ayniqsa, Ibn Sino ta'lomit va hind falsafasi uning keyingi ilmiy hayotida sezilarli iz qoldirgan. Mo'g'ul bosqini sabab, Nasafiy Mavarounnahri tark etib, nisbatan tinch va osoyishta makon izlab, Xurosonga borgan. U erda shayx Najmaddin Kubroning shogirdi Sa'diddin Hamaviyga qo'l berib, ma'nnaviy sayru suluk odobi va sir-asrorini o'zlashtirishga kirishgan. Vahdat ul-vujud ta'llimotining asoschisi - Shayx Muhiddin ibn Arabiy hamda Shayx Najmaddin Kubrolarning ta'llimotini uyg'unlashtirgan. Aziziddin Nasafiy uzoq umr ko'rib, Erondagi Yazd shahrining Abrko'h degan joyida vafot etgan. Hozirgi kunga qadar mutasavvifning hayot yo'li va ma'nnaviy merosi kam o'rganilgan. Garchi, Nasafiy hayoti va ijodining ayrim sahilalari bizga ma'lum bo'limgan tarzda qolgan bo'lsada, uning shaxsiyati, jahon xalqlari tafakkuriga oydinlik kiritgan asarlari ko'plab kutubxonalarda, ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Nasafiy asarlari tufayli Sharq va G'arba ulug' mutafakkir hamda mutasavvif siymo sifatida tan olingan. Aytish mumkinki, Aziziddin Nasafiyning yaratgan asarlari islam olamida eng ko'p o'qiladigan asarlar sirasiga kiradi. G'arb sharqshunoslari va tadqiqotchilari Merijon Mole va Frits

Mayyer mutasavvif haqida yozgan maqolalarini hisobga olmaganda, Nasafiyning hayoti va ijodi, tasavvufiy, falsafiy merosi, g'oyalari ustida deyarli fundamental tadqiqotlar olib borilgani yo'q. Olib borilgan tadqiqotlar tahlili faqatgina mutasavvifning asarlari tarjima qilinganini aks ettiradi.

TAHLILLAR

Aziziddin Nasafiy o'z asarlarini fors tilida umumiy ensiklopediya tarzida yozish bilan birga sodda tilda yozishga harakat qilgan. Deyarli barcha asarlarida tasavvufiy va metodologik tahlil ustunlik qiladi. Mutasavvif o'z asarlarida dastlab, kalom ilmi vakillari, so'ngra faylasuflar va oxirida vahdat ul - vujud ta'lomi vakillarining qarashlarini tahlil maydoniga olib chiqqan va vaqt-i-vaqt bilan tanosux(reinkarnatsiya) ta'lomi g'oyalalariga ham e'tibor qaratgan. Nasafiy asarlarini yozishda o'zidan oldin yashagan Abu Homid G'azzoliyning uslubiga tayanganini ko'rish mumkin. G'azzoliyning "Al munqiz minad dalol" asari Nasafiy asarlari tartibida yozilgan. "Al munqiz minad dalol" asarida avval mutakallimlar, so'ng mashshoiyun faylasuflar, undan so'ng imomat masalasi va oxirida tasavvuf masalalarini tahlil qilgan. Mutasavvifning "Kashf ul haqoyiq" asarini tahlil qilar ekanmiz, bizning fikrimizga ko'ra, Nasafiy bu asarini yozishda Umar Xayyomning "Silsilat ul tartib" asariga tayanganani ko'zga tashlanadi. Nasafiy "Kashf ul haqoyiq" asarida mavjudotlarning martabalari haqida fikr bildirganda, aynan "silsilatul tartib" iborasining qo'llanilishi Umar Xayyomning yuqorida tilga olingen asarining uslub va mundarijasidan aniq foydalanganligini ehtimolini oshiradi. Chunki, Umar Xayyom asarida bo'lgani kabi Nasafiyning "Kashf ul haqoyiq" asarida tasavvuf eng yuqori o'rinda turadi. Nasafiyning tili juda sodda va ochiqdir. Uslubining noaniq va tushunarsiz hech bir jihat yo'q. Nasafiy muhim diniy, irfoniy va falsafiy masalalarni sodda bir tarzda ifoda etib, g'oyatda ochiq uslub va qisqa jumlalarda ifodalash yo'lini bilgan. Nasafiy o'zining asarlarida zohir va botin ilmlarini birma-bir keltirib, mutasavviflarning usul, hikmat va istilohlari, fikrlari va kitoblarini ta'lif etgan, asarlarida kalom ahli, faylasuflar, vahdati vujud ahli fikrlarini chuqur o'rgangan bir mutasavvifdir. Nasafiy o'z asarlarida eng ko'p Alloh, koinot, inson, tavhid, va suluk mavzularini tahlil qilgan.

O'z davrining mashhur mutasavvifi, faylasufi va allomasi sifatida "Manozil as-soyirin" (Sayr etuvchilar manzillari), "Usul va furu" (Ildizlar va butoqlar), "Mabda' va ma'od" (Chiqish va qaytish), "Miftox ul-asror" (Sirlar kaliti), "Zubdat ul-haqoyiq" (Haqiqatlar qaymog'i), "Bayon ut-tanzil" (Nuzul bayoni), "Kashf ul haqoyiq" (Haqiqatlarning ochilishi), "Nafsi insoniy", "Insoni komil", "Vahdati vujud" va boshqa asarlarida o'zining tasavvufiy-falsafiy qarashlarini bayon etgan[1]. Fors tilidagi manbalarda keltirishicha, "Asror ut-tasavvuf" (Tasavvuf sirlari), "Xavos ul-xuruf" (Harflarning xususiyatlari) va "Asror ul-qobiliya" (Qobiliyat sirlari), "Asror ul-vahy" (Vahy sirlari), "Suluki maqomot" (Maqomot yo'llari), "Olami Sag'iyr va Vahdati vujud (Kichik olam va Yagona vujud) nomli asarlaridan ayrimlari hozirgi davrgacha saqlanib qolgan[2,67]. Mazkur maqolada biz mutasavvifning "Tanzil" deb nomlangan asarining mazmun va mohiyatini tahlil maydoniga tortib, qisqa tarzda bo'lsada, tadqiq etishga harakat qildik. Bu asar Nasafiy tomonidan "Tanzil" deya maxsus tilga olingen. Bunga sabab mutasavvif mazkur asaridan tashqari "Bayon ut-tanzil" nomli asarini ham yozgan. "Tanzil" asari fors tilida yigirma bobdan iborat tartibda yozilgan. Mutasavvifning bergan ma'lumotiga ko'ra, asarning ilk olti bobi Nasafda, to'rt bobi Buxoroda va oxirgi qismi Xurosonda yozilgan. Asar Allohga hamd va sano aytishdan so'ng quyidagicha boshlangan: "bilginki, bu kitob Aziz tomonidan Azizlar uchun yozilgan bir asardir. Bu kitobning nomi Tanzildir va u yigirma bob(asl)dan iboratdir"[3,31].

Asarning bob(asl)lari quyidagicha nomlanadi:

1. Dar bayoni ma'rifati Alloh (Allohn bilish bayonida)
2. Dar bayoni ma'rifati olam (Koinotni bilish)
3. Maloika (Malaklar, farishtalar)
4. Dar bayoni inson (Inson bayonida)
5. Dar bayoni nabiy va valiy (Payg'ambarlar va valiyalar haqida)
6. Dar bayoni nabiy va valiy (Payg'ambarlar va valiyalar haqida)
7. Dar bayoni mo'jizai anbiyo va avliyo (Payg'ambarlar va avliyolarining mo'jizalari bayonida)
8. Dar bayoni hayot va mavt (Hayot va o'lism bayonida)
9. Dar bayoni kashf va ilhom (Kashf va ilhom bayonida)
10. Dar bayoni ma'od (O'lindan so'nggi hayot bayonida)
11. Dar bayoni shariat, tariqat va haqiqat (Shariat, tariqat va haqiqat bayonida)
12. Dar bayoni ibodat (Ibodat bayonida)
13. Dar bayoni muomalot (Muomala bayonida)
14. Dar bayoni suluk (Suluk bayonida)
15. Dar bayoni xizmat, uzlat, suhbat (Xizmat, uzlat, suhbat bayonida)

FALSAFA

16. Dar bayoni bolig' va hur (Balog'at va hurlik bayonida)
17. Dar bayoni taqvo (Taqvo bayonida)
18. Dar bayoni shukr, rizo, sidq (Shukr, rizo, sidq bayonida)
19. Dar bayoni qazo va qadar (Qazo va qadar bayonida)
20. Maqsad

Bu yigirma bobning ba'zilarida sarlavha yo'q va oxirgi hamda uchinchi boblari juda qisqadir. Nasafiyning go'zal va ochiq uslubi mazkur kitobda ham o'zini ko'rsatadi. Kitob bir faylasufning boshqalar bilan suhbat tarzida yozilgan. Kitobning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri muallifning o'quvchilar bilan suhbatlashmoqchi bo'lganida "YO aziz" so'zini takrorlashidir. Chunki Nasafiy boshqa asarlarida xitob etgan kishilariga nisbatan "YO solik" yoki "Ey darvesh" deya murojaat qilgan. Asarning mazmuni, mundarijasi va uslubi diqqatga sazovor tomoni shundaki, bir masalaning olti mакtab nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi va har bir qarashning bir solik tomonidan tamsil etilishidir. Biroq shuni ham qayd etish lozimki, Nasafiy boshqa asarlarida xuddi shunday metodni qo'llagan va foydalangan. Chunki, mutasavvif boshqa asarlarida har qanday mavzuni umumiylig jihatidan dastavval kalom ahlining, so'ngra faylasuflarning, undan keyin vahdat ul-vujud, hamda kalom ahlining qarashlariga ko'ra izohlagan va vahdat ul-vujud maktabining "ahli nar" hamda "ahli nur" deya ikki qismga bo'lingan soliklarning tushunchalariga o'rinn bengan. "Tanzil"ning yana boshqa asarlaridan farq qiladigan jihat shundaki, boshqa asarlarida har bir qarashni ifodalagan solikning unvoni zikr etilgan holda bo'lsa, "Tanzil"da faqagina solik so'ziga ishora qilingan. Chunki, diqqat bilan e'tibor qaratilganda ko'rindiki, Nasafiyning "Tanzil"dagi "soliki avval", ilk solik bilan boshqa asarlaridagi kalom ahli nomi bilan zikr etilgan fikrlar o'tasida tamomila muvofiqlik mavjud. Xuddi shu kabi ikkinchi solik bilan faylasuflarning, uchinchi solik bilan tanosux ahlining, to'rtinchchi solik bilan vahdat ul - vujud ahlining, beshichi solik bilan vahdat ul - vujud ahlining nar, oltinchi solik bilan nur guruuhlarining fikrlari bir-biriga hamohangdir. Biroq, Nasafiyning fikricha, "Tanzil"da o'rinn berilgan olti solikning fikri birinchidan oltinchi solikning fikrlariga qarab rivojlanmaydi. YA'ni birinchi solikning qarashi ikkinchi solikning qarashiga ko'ra nuqsonga egadir, yoki oltinchi solikning qarashi ikkinchi solikning tushunchasiga nisbatan mukammalroq deb bo'lmaydi. Mohiyatan, bu soliklarning har biri bir falsafiy maktabning tamsilchisi bo'lib hisoblanadi. Barchasining ilmlari va fikrlari juz'iy xususiyatga ega. Haqiqatni aniqlab olish uchun har olti maqomning yaxshi va yomon jihatlariga ratsional tarzda tashxis qo'yish va ularni o'rtacha ya'ni mo'tadil bir shaklda tushunish lozimdir.

Ko'rinib turibdiki, Nasafiy bu asarda har olti fikrning to'g'riligi ma'lum bir darajada qabul qilgan. Chunki, bizga berilgan ilmlar nisbiy va izofiydir. Agar har narsani mutlaq haqiqat nuqtai nazaridan e'tiborga olsak, shuhud darajasidagi ilmlarimiz ham nisbiyligicha qoladi. Shu jihatdan aytish mumkinki, Nasafiy "Tanzil"da haqiqatni tashhislay olgan va kamolotning cheksiz xususiyatga egaligini tahlil va tadqiq eta olgan. Yuqoridagi qayd etib o'tilgan fikrlardan tashqari, "Tanzil"da ko'zga tashlanadigan muhim xususiyatlardan biri Nasafiyning solik so'ziga o'ziga xos tarzda ma'no bergenligidir. Mohiyat e'tibori bilan tahlil etilsa, mutasavvifning mazkur asari va boshqa asarlaridagi solik Abu Hafs Umar Suxravardiyning "Avorif - ul maorif"(Ma'rifatni anglaganlar) asarida ta'riflangan solikdan tamomila farq qiladi. Chunki, Suxravardiyning fikriga ko'ra, solik butunlay tasavvufga intisob(mansub) etgan riyoza sohibi bo'lgan so'fiyidir. Nasafiyga ko'ra esa, solik haqiqatni izlovchi yo'lovchidir. Haqiqat yo'lovchisi so'fiymi, faylasufmi, kalomchimi yoki tanosux ahlidan va istasa vahdat ul - vujud ahlidan bo'lsin hech qanday farq yo'q. Bu fikrlar orqali Nasafiyning solik tushunchasini "haqiqat yo'lovchisi" istilohi bilan ifodalash mumkin. "Tanzil"ning mundarijasiga diqqat bilan e'tibor qaratilsa, Aziziddin Nasafiy unda tasavvuf ontologiyasi, gnoseologiyasi, antropologiyasi, axloqshunosligi, estetikasiga oid muhim mavzularni tahlil etgan. Asarning birinchi aslida o'zlikni, olam va Haqni bilish, nur va uning ko'rinishlari, insonlarning tabaqalari, Haqning zoti va sifatlari, tana va ruhning birligi, jabarut, malakut va mulk olamlari, ijmol va tafsil olami, quvvat olami, Allohning olim va abadiy bo'lishi, Alloh va olamning birligi, tawhid va uning ko'rinishlari, javhar va araz, vujudning qudrat va ixtiyor sifati kabi mavzular tahlil etilgan. Ikkinchi aslida esa, mulk, malakut va jabarut olamlari, insoni sag'iyr va insoni kabiyr, anosiri arba'(to'rt unsur), ruh va jismning mizozi, mo'tadil va g'ayri mo'tadil jism va ruh, surat va modda kabi mavzularga o'rinn berilgan. Asarning uchinchi aslida malaklarning yaratilishi, amallari, vazifalari, olam va inson bilan aloqadorligi mavzulari tadqiq etilgan. Inson, komil inson va mukammallik, ruhning ko'rinishlari, inson oshqozonining quvvatlari, ozuqalarning oshqozonda hazm bo'lishi va keyingi holati, idrok va harakat etish quvvati, insonlarning yaxshi yoki yomon sifat va ishlariga fikrlar asarning to'rtinchchi aslida o'rganilgan. Beshinchi aslida

nabiy va valiy tushunchalarning lug'aviy va istilohiy ma'nolariga, ular o'tasidagi farqlarga e'tibor berilgan. Asarning oltinchi bobo nabiy, rasul, ulul-azm, shariat sohibi payg'ambar, tariqat sohibi valiy, xatmi nubuvvat, xatmi valoyat kabi masalalarni o'z ichiga olgan. Yettinchi aslda qamrab olingan mavzular nisbatan kam bo'lib, mo'jiza va karomat mavzulari yoritilgan. Sakkizinchchi aslda asosiy e'tibor tasavvuf gnoseologiyasiga qaratilgan bo'lib, bu aslda vahiy, ilhom, ilmni egallah yo'llari, g'ayb, shahodat, falakul-aflok, mukammal inson kabi mavzular haqida ma'lumot berilgan. To'qqizinchchi asl esa o'lim, hayot, qiyomat mavzulari tahlil nuqtasiga aylantirilgan. O'ninchchi aslda o'limdan keyingi hollar, jannah, jahannam, mabda' va maod, ilk inson, qiyomat, nasx, masx, dono, haqiqiy ilm, majoziy ilm mavzulari batafsil tarzda yoritilgan. O'n birinchi asl eng qisqa asllardan biri bo'lib, shariat, tariqat, haqiqat, iymon, islom, inson haqidagi haqiqatlarni qamrab olgan. O'n ikkinchi va o'n uchinchchi asllar ham qisqaroq bo'lib, Nasafiy bu asllarni o'zidan keyingi qardoshlari yozishini qayd etib, har holda bir mavzuga o'rın ajratgan. Bu aslning mohiyatida maqomot, maqomlarning shartlari va ruknlari, shuningdek, muomala va uning shartlari, ma'rifatiga e'tibor berilgan. "Tanzil"ning o'n to'rtinchi asli muhim tasavvufiy masalalar suluk, sulukning shartlari, ruknlari, haqiqati va odobi, solikning vazifalari kabi mavzulari alohida tadqiqot qilingan. O'n beshinchchi aslda xizmat, uzlat, suhbat, suhbat turlari, suhbatning shartlariga o'rın berilgan. O'n oltinchi asl bolig', hur, oqil, dono, komil va mukammallik mavzularini o'z ichiga olgan va ularning tahlili tasavvuf falsafasi nuqtai nazardan, ham ilmiy tarzda analiz qilingan. O'n ettinchi aslda taqvo, taqvoning darajalari, ilm va taqvoning o'zaro bog'liqligi, harom va halol, shafqat, shafqatsizlik, dunyoning foniyligiga masalalar diniy-axloqiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. O'n sakkizinchchi aslda esa Nasafiy shukur, shukurning martabalari, rizo, sabr mavzularining mazmun-mohiyatini ochishga uringan. O'n to'qqizinchchi aslda mutasavvif qazo va qadarning ma'nosи, taqdirning ta'rifi, Allohnning iroda va sifati, iymon va kufр, toat va masiyat, insonning irodasi, javhar va araz haqida bahs yuritilgan. Yigirmanchi bobda yuqoridagi boblardan olingan natijalarning qay darajada ahamiyatli ekanligi, go'zal xulqqa ega bo'lishning foydalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan va so'ngso'z o'rnida xotima berilgan. Shuningdek, asarni o'rganish, hatto uni yod olish juda zarur ekanligi ta'kidlangan hamda asarda yozilgan fikrlarni o'ziga singdirish kishilarda tark, sulh, taqvo, ozor bermaslik, har kimga va narsaga rohat berish, odamlardan ranjimaslik, kibrga berilmaslik, tavoze' sohibi bo'lish, qanoatkor bo'lish, zarurat bo'limasa gapirmaslik, bilimli insonlarni do'st tutish va ular suhbatlarini talab qilish kabi o'n ikki xislatning bayon etilganligi ko'rindi.

Uning falsafa, kalom, fiqh va barcha islomiy ilmlari bilan birligida tasavvufni ham egallaganligi va bularning barchasini aslda vahdat-ul vujud haqidagi qarashlariga material sifatida ishlatganligi haqiqatdir. Shoyad, Nasafiy ilk davrlarda biror bir tariqatga kirib borgan bo'lsa ham, keyinchalik mustaqil holda o'ziga xos bir tizim asosida tasavvufiy masalalarni o'rganganligi o'zining asarlarida yanada ochiq yoritib berilgan[4,94].

XULOSA

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari qator yozilgan tasavvufi-falsafiy konteksdagi asarlar sirasiga kiradi. Mazkur asardagi g'oya va qarashlar asrlar davomida kishilarni sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat, irfoniy tafakkur, ma'rifat va madaniyatga chorlab kelmoqda va hozirgi davrimiz uchun ham ahamiyatga egadir. Nasafiyning tasavvufiy - falsafiy asarlaridan o'rın olgan ilohiyot falsafasi, inson falsafasi, bilish falsafasi, axloq falsafasi, ijtimoiy falsafaga oid qarashlarini falsafiy nuqtai nazardan o'rganishni taqozo etidi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azîzüddîn Neseff'nin yirmi iki risâlesi'nin tercümesi işığında tasavvufi bilgi. Sezai Fîrat. İstanbul-2004.S.94
2. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Нажмиддин Комилов, Олимжон Давлатов таржимаси. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Тошкент: 2021.
3. İbrahim Duzen. Aziz Nesefi'ye Göre Allah, Kainat ve insan. İstanbul. Furkan yayınları. 2000. -S.10
4. Чориев А. Инсон фалсафаси. Тошкент. 2008.
5. Ҳәқима Саломова, Норхўжа Чориев. Азизиддин Насафий таълимотида меъёр тушунчаси. Имом Бухорий сабоқлари. 2015 йил. №4-сон. Б.67